

FAYZULLA XO'JAYEVNING DAVLATCHILIK QARASHLARI

Haqqulov Mehridin Yunusovich

Osiyo xalqaro universiteti

“Tarix va filologiya” kafedrası o'qituvchisi

mexriddinhaqqulov@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.15661647>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Fayzulla Xo'jayevning hayoti va ijodini o'rganish, Buxoro amirligi davrida yaratilgan ilm fan sohasidagi ulkan o'zgarishlarni ilmiy tahlil qilishga bag'ishlangan. Buxoro Sovet Respublikasi tashkil topishida Fayzulla Xo'jayevning qarashlarini hamda davlat boshqaruvi faoliyatini o'rganishga O'rta Osiyo xalqlari tarixini har tomonlama o'rganishda Buxoro amirligi davrini tadqiq etish bilan bog'liq ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Fayzulla Xo'jayev, O'rta Osiyo, SSR hukumati, “Yosh buxoroliklar”, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi, O'zSSR MIK, Eron, Turkiya, Afg'oniston, Germaniya, BXSr, Buxoro jumhuriyati, O'zbekiston SSR, Moskva

Kirish. Sobiq sovet ittifoqi davrida bir qator o'zbek ma'rifatparvarlari va taraqqiyparvarlari milliy davlatchilikni barpo etish yo'lidagi xatti-harakatlari uchun qatag'on qurboniga aylandi. Ular qatorida 13 yil O'zbekiston SSR hukumatini boshqargan Fayzulla Xo'jayev ham millat taraqqiyoti yo'lidagi harakatlari sabab tazyiqqa uchradi. “Xalq dushmani” tamg'asini olgan bu kabi fidoyilarning nafaqat o'zi, balki oilasi, farzandlari ham azob-uqubatga giriftor qilingan, qora otliqqa, aybsiz aybdorga chiqarilgan. Fayzulla Xo'jayev otasidan qolgan boylikni yangi usul maktablari ochish va “Yosh buxoroliklar” partiyasining siyosiy faoliyatini moddiy qo'llab-quvvatlashga sarfladi. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashkil qilinganidan so'ng barcha sohalarida o'zgarishlar yuz bera boshladi. Qisqa muddat ichida Buxoroda demokratik islohotlar joriy qilindi. Hukumat siyosatining muhim yo'nalishi bo'lgan aholi maishiy turmushini yaxshilash bilan bog'liq ishlar shaharsozlik madaniyatining rivojlanishiga ham turtki bo'ldi.

Hukumat Buxoro ko'chalariga tosh yotqizish, transport yo'llarini tartibga keltirish borasida bir qator tadbirlarni amalga oshirdi. Fayzulla Xo'jayevning yangi usul maktablari ochish uchun qilgan ishlari uning ma'rifatparvarlik va ilm-fan taraqqiyotiga qaratilgan asosiy faoliyatlaridan biridir. O'sha davrning jadidlik harakati tarafdorlari sifatida Xo'jayev va uning hamfikrlari an'anaviy ta'lim tizimini zamon bilan hamnafas etish, yosh avlodni yangi ilmiy va madaniy bilimlar bilan qurollantirish maqsadida jiddiy ishlar olib bordi. Fayzulla Xo'jayev asos solgan yangi maktablar an'anaviy madrasalar bilan ta'lim metodlari va yo'nalishlari jihatidan farqlanar edi. Jumladan, ularda zamonaviy fanlar, xorijiy tillar hamda fanlarni o'qitishning yangi pedagogik usullari joriy etilgandi. Fayzulla Xo'jayevning ushbu faoliyati nafaqat ta'lim sohasiga yangilik kiritish, balki milliy uyg'onish va siyosiy mustaqillikni qo'llab-quvvatlashga ham xizmat qilgan.

U o'z faoliyati orqali O'zbekistonning ijtimoiy-madaniy hayotidagi muhim o'zgarishlarga turtki berib, bu boradagi tashabbuslari bilan yanada taniladi. Yirik siyosatchi va davlat arbobi nomini abadiylashtirish uchun u istiqomat qilgan uyga Vazirlar Mahkamasining “2017-2027-yillarda qayta tashkil etiladigan davlat muzeylari to'g'risida”gi qarori asosida bu go'sha “Boy savdogar xonadoni uy-muzeyi” nomi bilan faoliyat yurita boshladi. Keyinchalik hukumatning tegishli qaroriga muvofiq, majmua “Fayzulla Xo'jayev uy-muzeyi” deb qayta nomlandi. Ayni paytda u yerda besh yuzdan ziyod eksponat bor.

Ta'kidlash joizki, Fayzulla Xo'jayevning siyosiy va ma'rifatparvarlik faoliyati o'tgan asrning boshlarida O'zbekistonning siyosiy maydonida sodir bo'lgan murakkab va keskin o'zgarishlar davriga to'g'ri keladi. Fayzulla Xo'jayev g'oyat og'ir sharoitlarda ishlab, millatning ma'naviyatini yuksaltirish, uning qadr-qimmatini e'zozlash borasida katta ishlarni amalga oshirgan edi. Bugungi Yangi O'zbekiston sharoitida Fayzulla Xo'jayev kabi insonlarning tarixiy xizmatlarini yodga olish har jihatdan foydali bo'ladi. Jadidlarning bizga meros bo'lib qolgan ilm-u ma'rifatga undovchi asarlari va g'oyalari hozirgi davr manfaatlariga hamohang bo'lsa, ularning hayoti va ijodi bilan chuqurroq tanishish yosh avlodning millatparvar bo'lib ulg'ayishiga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Keyinchalik Qirg'izistonga majburan ko'chirilgan. Fayzulla Xo'jayev davlat arbobi, tarixchi va iqtisodchi olim, publitsist, jurnalist sifatida samarali ijod qilgan. O'zbek va rus tillarida o'zidan boy ilmiy meros qoldirgan. 1925—1937-yillarda uning 16 ta kitobi va 200 dan ortiq maqolalari nashr qilingan. Xo'jayevning „Buxoro inqilobining tarixiga materiallar“ (1926), „Buxorodagi revolyutsiya va O'rta Osiyoning milliy chegaralanishi tarixiga doir“ (1932) kitoblari, „BXSRdagi iqtisodiy ahvol“ (1924), „Yosh buxoroliklar to'g'risida“ (1926), „Jadidlar“ (1926), „Bosmachilik“ (1930) maqolalarida O'zbekiston tarixining XX asr 1-choragidagi jiddiy muammolar ko'rsatilgan Fayzulla Xo'jayev XX asr birinchi yarmida xalqimizning eng mashhur davlat va jamoat arbobi sifatida tarix sahifalaridan o'rin egallagan. Ammo uning hayoti ham faoliyati singari ziddiyatli va murakkabli kechgan. Fayzulla Xo'jayev haqida ko'pchilik biladi, faqat uning tarjimai holiga doir muhim bir dalilni keltirib o'tmoqchiman: O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivida 1925 yilda Fayzulla Xo'jayev shaxsan o'z qo'li bilan rus tilida to'ldirilgan bir qancha anketalardan iborat hujjat saqlanib kelgan. Ushbu nodir hujjat muqovasida „O'zSSR MIK a'zosi Fayzulla Ubaydullayevich Xo'jayevning shaxsiy ishi“ deb yozilgan. Fayzulla Xo'jayev yashil siyohda to'ldirilgan anketalarining birida u 1912 yil 16 yoshdan boshlab Buxorodagi siyosiy jarayonlarda faol qatnashganligi va inqilobiy „Yosh buxoroliklar“ firqasi a'zosi ekanligi qayd etadi.

Fayzulla Xo'jayev davlat va jamoat arbobi bo'lish bilan birga mohir diplomat edi. U Eron, Turkiya, Afg'oniston, Ozarbayjon kabi sharq davlatlaridan tashqari G'arb mamlakatlari Angliya, Germaniya, shuningdek, Yaponiya bilan diplomatik aloqalar o'rnatishga katta kuch-g'ayrat sarfladi. Buxoro bilan Germaniya o'rtasida madaniy va iqtisodiy hamkorlik yo'lga qo'yilib, savdo-sotiq avj oldirilgan. Fayzulla Xo'jayev 1922 yil oktyabr-noyabr oylarida Germaniyada bo'lib, turli banklar va kompaniyalar bilan shartnomalar tuzgan. Shu vaqtga kelib u nemis tilini juda puxta bilgan. U talabalarni xorijga jo'natib, o'qitishning tashabbuskorlaridan biri bo'lgan. Fayzulla Xo'jayev, Fitrat, Mukammil Burhonovning tashabbusi bilan 100 ga yaqin turkistonlik talaba BXSR hukumati hisobidan Germaniyada, o'nlab talabalar Turkiya va boshqa davlatlarda o'qishgan. Tarixdan ma'lumki, 1924 yil oxiri va 1925 yil boshlarida O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilib, O'zbekiston SSR tashkil topdi. Fayzulla Xo'jayev bu murakkab davrda O'zbekiston SSR inqilobiy qo'mitasi (Revkom) – Muvaqqat ishchi-dehqon hukumati raisi bo'lib ishladi. 1925-1937 yillarda O'zbekiston SSR Xalq Kommissarlari Soveti raisi bo'lib faoliyat yuritdi. Fayzulla Xo'jayev o'z faoliyati davomida o'zbek xalqining iqtisodiy va madaniy ravnaqiga xizmat qiluvchi tadbirlarni amalga oshirdi. U Markaziy Qo'mitaning O'rta Osiyo byurosi va O'zbekiston kompartiyasiga nisbatan muxolifat mavqeida turgan o'n sakkizlar guruhi (1925 yil, noyabr)ning quloqlarni sinf sifatida tugatish siyosatini yoqlamagan, O'zbekistonda yoppasiga chigit ekilishi paxta yakka hokimligiga olib keladi, deb hisoblagan. F.Xo'jayev O'zbekistonning ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirgan.

Sport inshootlari qurilishida tashabbuskor bo'lgan. Fayzulla Xo'jayev 42 yil umr ko'rgan bo'lsa, shundan 17 yil davomida Buxoro jumhuriyati va O'zbekiston SSR hukumatlarini boshqardi. Afsuski, F.Xo'jayev 40 yoshida qatag'on qilindi. U o'zi xizmat qilgan mafkura tomonidan o'limga hukm qilinib, bu hukm kommunistik e'tiqod o'chog'i - qizil Moskvada amalga oshirilgan. Ehtimol, Fayzulla Xo'jayevning ulkan baxti ham, mislsiz fojiasi ham shundadir.

Xulosa. Xo'jayevning iqtisodiy va madaniy islohotlardagi roli Fayzulla Xo'jayevning faoliyatining yana bir muhim jihati uning iqtisodiy va madaniy islohotlarida ishtirok etishidir. U Sovetlar davrida O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishini rag'batlantirishga harakat qildi. Bu borada uning siyosiy faoliyatidagi eng muhim yo'nalishlardan biri qishloq xo'jaligi va sanoatni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar edi. Xo'jayev, shuningdek, O'zbekistonning madaniy rivojlanishiga katta hissa qo'shdi va ilmiy, madaniy tashkilotlarning faoliyatini tashkil etishda ishtirok etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Haqqulov, M. Y. O. G. L. (2022). Markaziy Osiyoda ilk diplomatik munosabatlar tarixi. *Science and Education*, 3(10), 385-389.
2. Yunusovich, H. M. (2024). Experiences Related to the Fine Fiber Cotton of Uzbekistan during the Years of Soviet Authority. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 129-132.
3. Yunusovich, H. M. (2024). The Formation, Development and Role of the High Seljuk Empire Founded by the Turkic Peoples in the Islamic World. *Miasto Przyszłości*, 53, 956-959.
4. Haqqulov, M. (2024). O 'RTA OSIYO XALQLARINING OZODLIK ORZUSI BO'LGAN "TURKISTON MUXTORIYATI". *Modern Science and Research*, 3(12), 609-613.
5. Haqqulov, M. (2025). USMONIYLAR IMPERIYASINING TASHKIL TOPISH TARIXI. *Modern Science and Research*, 4(1), 663-672.
6. Haqqulov, M. (2024). TURKISTON OZODLIGINING JARCHILARI. *Medicine, pedagogy and technology: theory and practice*, 2(11), 154-159.
7. Gulyamov, A., Srojeva, G., & Haqqulov, M. (2025). O 'RTA OSIYO OLIMLARINING KARTOGRAFIK MEROSI. *Modern Science and Research*, 4(1), 221-227.
8. Xakkulov, M., & Kosimov, U. (2025). HISTORY OF MILITARY WORK IN THE EMIRATE OF BUKHARA. *Journal of universal science research*, 3(1 (Special issue)), 319-325.
9. Gulyamov, A., Srojeva, G., & Haqqulov, M. (2025). BUXORO OCHILGAN MUZEYLARNING TASHKIL TOPISH TARIXI. *Modern Science and Research*, 4(1), 248-256.
10. Srojeva, G., Gulyamov, A., & Haqqulov, M. (2025). XVII ASRDA BUXORODA ABDULAZIZXON MADRASASINING QURILISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 4(1), 471-478.
11. Haqqulov, M., & Sadulloyeva, M. (2025). IMOM BUXORIYNING "AL-JOME'AS SAHIH" ILMIY AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 4(2), 472-476.
12. Haqqulov, M. (2025). YANGI DAVRDA AVSTRIYA (GABSBURGLAR) IMPERIYASINING IJTIMOYIY-SIYOSIY HAYOTI (XVI-XVIII ASRLAR). *Modern Science and Research*, 4(2), 834-842.

13. Xakkulov, M., & Kosimov, U. (2025). HISTORY OF MILITARY WORK IN THE EMIRATE OF BUKHARA. *Journal of universal science research*, 3(1 (Special issue)), 319-325.
14. Haqqulov, M., & Sadulloyeva, M. (2025). IMOM BUXORIYNING "AL-JOME'AS SAHIH" ILMIY AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 4(2), 472-476.
15. Haqqulov, M. (2025). YANGI DAVRDA AVSTRIYA (GABSBURGLAR) IMPERIYASINING IJTIMOYIY-SIYOSIY HAYOTI (XVI-XVIII ASRLAR). *Modern Science and Research*, 4(2), 834-842.
16. Srojeva, G., Haqqulov, M., & Gulyamov, A. (2025). KUDZULA KADFIZ BOSHCHILIGIDA KUSHON IMPERIYASIGA ASOS SOLINISHI VA BU IMPERIYANING RAVNAQI. *Modern Science and Research*, 4(2), 109-117.
17. Yarashova, M., Yuldosheva, F., & Haqqulov, M. (2025). TA'LIM OLISH TARTIBI: YANGILANISH VA O'ZGARISHLAR. MASOFAVIY, DUAL VA INKLYUZIV TA'LIM. *Modern Science and Research*, 4(2), 73-80.
18. Haqqulov, M., Gulyamov, A., & Srojeva, G. (2025). JADIDLARNING 1916 YILDAGI XALQ QO'ZG'OLONIDA TUTGAN O'RNII. MILLIY HUKUMAT-TURKISTON MUXTORIYATI VA UNING FAOLİYATI. *Modern Science and Research*, 4(2), 100-108.
19. Haqqulov, M., Yarashova, M., & Yuldosheva, F. (2025). TARIXIY KARTOGRAFIYANING ASOSIY YO'NALISHLARI, SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI. *Modern Science and Research*, 4(2), 81-91.
20. Gulyamov, A., Srojeva, G., & Haqqulov, M. (2025). BUXORO MUZEYINING II JAHON URUSHIGACHA BO 'LGAN DAVRDAGI FAOLİYATI. *Modern Science and Research*, 4(2), 92-99.
21. Haqqulov, M., & Sadulloyeva, M. (2025). THE TEACHER-STUDENT RELATIONSHIP BETWEEN IMAM AL-BUKHARI AND IMAM AT-TIRMIDHI. *Modern Science and Research*, 4(3), 440-447.
22. Haqqulov, M. (2025). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI TARIXIY GEOGRAFIYASI. *Modern Science and Research*, 4(3), 584-593.
23. Haqqulov, M. (2025). NARSHAXIYNING" BUXORO TARIXI" ASARI TAHLILI. *Modern Science and Research*, 4(4), 1036-1045.
24. Yarashova, M., Haqqulov, M., & Muyiddinov, B. (2025). BUXORO QO'RBOSHILAR TARIXIDA O'CHMAS NOM QOLDIRGAN, BUXORO QAHRAMONI IBROHIMBEK. *Modern Science and Research*, 4(4), 388-397.
25. Haqqulov, M., Yarashova, M., & Muyiddinov, B. (2025). SHARAFIDDIN ALI YAZDINING "ZAFARNOMA" ASARI TAHLILI. *Modern Science and Research*, 4(4), 398-408.
26. Haqqulov, M. (2025). THE DEVELOPMENT OF THE SCIENCE OF HADITH IN HISTORICAL ANALYSIS. *Modern Science and Research*, 4(4), 467-474.
27. Haqqulov, M., & Sadulloyeva, M. (2025). THE DOCTRINE OF SUFISM IN THE EYES OF THE SCHOLARS OF THE EAST. *Modern Science and Research*, 4(5).
28. Azizovich, G. A. (2024). Trade Relations of Population in Bukhara Emirate, Shariah Rules and Regulations in Commercial Affairs, Partnership Relations. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 189-194.
29. Azizovich, G. A. (2024). Family-Marriage and Inheritance Relations of the Population in the Bukhara Emirate. *Miasto Przyszłości*, 53, 964-969.

30. Gulyamov, A. (2024). BUXORO MUZEYNING TASHKIL TOPISHI TARIXI. *Modern Science and Research*, 3(12), 659-667.
31. Haqqulov, M. (2025). ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING HAYOT VA IJOD YO 'LI. *Modern Science and Research*, 4(5).
32. Нозимов Ж. Т. и др. Социально-психологические особенности формирования духовных потребностей в профессиональном развитии студентов //Science and Education. – 2024. – Т. 5. – №. 5. – С. 455-459.
33. Nozimov, J. (2019). The use of the trainings in developing intercultural competence in students. In Психология образования будущего: От традиций к инновациям (pp. 112-114).
34. Nozimov, J. T., & Usmanova, M. N. (2022). SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF INTERNET ADDICTION AMONG STUDENTS. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 1(10), 49-51.
35. Muyiddinov, B. (2023). XII-XIII ASRLAR DAVRIDA BUXORODA ILM – FANNING RIVOJLANISHI. *SCHOLAR*, 1(28), 341–345. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10027071>
36. Muyiddinov Bekali. (2023). MO'G'ULLAR BOSQINI DAVRIDA BUXORONING AYANCHLI TAQDIRI. *TADQIQOTLAR.UZ*, 25(2), 212–215. Retrieved from <http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/308>
37. Muyiddinov, B. (2024). BARTHOLD'S "СОЧИНЕНИЯ. ТОМ I. ТУРКЕСТАН В ЭПОХУ МОНГОЛЬСКОГО НАШЕСТВИЯ" THE HISTORY OF THE CREATION OF THE WORK. *MODERN SCIENCE AND RESEARCH*, 3(1), 699–702. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10552555>
38. Muyiddinov, B. (2024). THE ROLE OF MILITARY REFORMS IN THE BUKHARA KHANATE IN THE LIFE OF THE STATE UNDER THE SHAYBANIDS. *MODERN SCIENCE AND RESEARCH*, 3(2), 646–648. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10668887>
39. Gulyamov, A., & Ashurov, D. (2025). CHANGES IN THE LIFE OF THE WORLD'S COUNTRIES AFTER WORLD WAR II. *Journal of universal science research*, 3(1 (Special issue)), 333-341.
40. Gulyamov, A. (2025). MANG 'ITLAR SULOLASI DAVRIDA DAVLAT BOSHQARUVI, TUZUMI VA ICHKI SIYOSATI. *Modern Science and Research*, 4(1), 790-798.
41. Gulyamov, A., & Xamidova, R. (2025). ABU RAYHON BERUNIY BUYUK QOMUSIY OLIM. *Modern Science and Research*, 4(2), 758-766.
42. Vahobovna, S. G. (2024). YANGI O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA'LIM-TARBIYA MUASSASALARIGA QARATILAYATGAN E'TIBOR.
43. Ilniyoz o'g'li, S. F. (2023). ETNOGRAFIK TADQIQOTLARDA QORAQALPOQ XALQINING YORITILISHI.
44. Ilniyazovich, S. F. (2024). The Formation of Preliminary Knowledge about the People of Karakalpak. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 149-155.
45. Sayfutdinov, F. (2024). BUXORO AMIRLIGINING QURILISH TARIXI: MADANIY VA ARHITEKTURA TARAQQIYOTI MEROSI. *Modern Science and Research*, 3(12), 852-858.
46. Sayfutdinov Feruz Ilniyoz o'g'li. (2023). XX ASR 2-YARMI XXI ASR BOSHLARI ZARAFSHON VOHASIDA ETNOSLARARO MUNOSABATLAR. *TA'LIM VA*

- RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(9), 1–5. Retrieved from <https://sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/7941>
47. Shokir o'g'li, S. U. (2024). Media literacy is a requirement of the modern world. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 4(3), 276–280.
48. Shokir o'g'li, S. U. (2024). Media literacy is a requirement of the modern world. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 4(3), 276–280.
49. Hayrullayev, U. (2024). THE IDEA THAT MADE THE OTTOMAN STATE GREAT (RED APPLE II). *Modern Science and Research*, 3(2), 1071–1073. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29533>
50. Hayrullayev, U. (2024). BRIEFLY ABOUT THE "RED APPLE" MYTHOLOGY OF THE TURKS. *Modern Science and Research*, 3(1), 568–572. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28329>
51. Umidjon, X. (2024). Literacy and Information Exchange in the Ancient East and West. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 179–183. Retrieved from <http://www.inovatus.es/index.php/ejine/article/view/2698>
52. Umidjon, X. (2023). 1918-1939-yillarda Polshaning ichki siyosatidagi o'zgarishlar. *Центр Научных Публикаций (buxdu.Uz)*, 42(42). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/10963
53. Umidjon Hayrullayev. (2024). THE POSITION OF CENTRAL ASIAN GOVERNORSHIPS DURING THE PERIOD OF THE TURKISH KHANATE AND THE ARAB INVASION. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13958464>
54. С. Ю. Каримов. (2025). РОЛЬ ФАЙЗУЛЛЫ ХОДЖАЕВА В ИСТОРИИ УЗБЕКИСТАНА. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14741491>
55. Каримов Сухроб Юсупович. (2024). ОРДЕН НАКШБАНДИЯ: ИСТОРИЯ, УЧЕНИЕ И ВЛИЯНИЕ. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14509878>
56. Yusupovich, K. S. (2024). Abu Hafis Kabir and the Spread of the Hanafi Madhhab in Transoxiana. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 204–207. Retrieved from <https://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/4079>
57. Юсупович, К. С. (2024). КРАТКИЙ ОБЗОР НА ВЗАИМООТНОШЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА И ДВИЖЕНИЯ “ТАЛИБАН”, НА ФОНЕ ЗАХВАТА ТАЛИБАМИ ВЛАСТИ В АФГАНИСТАНЕ В 2021 ГОДУ. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 4(11), 227–229. Retrieved from <https://sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/12432>
58. Hayrullayev, U., Sayfutdinov, F., & Rahmonova, S. (2025). SHAYBONIYLAR DAVLATI VA USMONLI TURKTLAR DAVLATI O'RTASIDAGI DASTLABKI ALOQALAR TAVSIFI. *Modern Science and Research*, 4(1), 147–154. Retrieved from
59. Каримов Сухроббек Юсупович. (2025). ТАРИКАТ ЯССАВИЯ: ИСТОРИЯ, УЧЕНИЕ И ВЛИЯНИЕ. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14872554>